Xorijiy mamlakatlar tajribasida mahsulotlarning muvofiqligini baholash amaliyotini chuqur tahlil qilish milliy standartlashtirish tizimini takomillashtirish jarayonida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday tahlil xalqaro tajribadagi ilg'or yondashuvlar, nazorat va sinov mexanizmlarini o'rganish, ularni milliy sharoitga moslashtirish hamda tartibga solish jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba asosida muvofiqlikni baholash usullarini joriy etish mamlakat ichki bozorining barqarorligini ta'minlash, mahsulot sifatini oshirish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Jahondagi geosiyosiy keskinliklar sharoitida Xalqaro Akkreditatsiya Forumi (IAF) tomonidan mahsulotlarning muvofiqligini ta'minlash zaruriyati yanada dolzarb tus olmoqda. Bu jarayon xalqaro savdo munosabatlarida barqarorlikni saqlash, mahsulotlar xavfsizligi va sifatini kafolatlash hamda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Geosiyosiy beqarorlik oqibatida xalqaro bozorlar uchun kirish imkoniyatlarining cheklanishi, global yetkazib berish zanjirlarida uzilishlar, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga bo'lgan talablarning o'zgarishi va pasayishi kuzatilmoqda.

Bundan tashqari, texnologik jihatdan rivojlangan davlatlarga qaramlik hamda qo'llanilayotgan sanksiyalar sanoatning turli sohalarida jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, yirik loyihalarni amalga oshirish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etishda qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Mazkur sharoitda milliy iqtisodiyotning asosiy vazifalaridan biri texnologik suverenitetni ta'minlashdir. Shu nuqtayi nazardan, standartlashtirish va muvofiqlikni baholash tizimlarining rivojlantirilishi

strategik ahamiyat kasb etadi. Mahsulotlar muvofiqligini baholash amaliyotini takomillashtirilishi nafaqat ichki bozorni xavfsiz va sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash, balki milliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ham muhim vosita sifatida qaraladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Alex W. va Bertil M. ta’kidlashicha, “mos namuna” tushunchasi mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki namunadan kelib chiqadigan noaniqlikni e’tibordan chetda qoldirish, ko‘pincha, umumiy o‘lchov noaniqligining ishonchli bahosiga asoslangan qaror qabul qilish qoidalarini izdan chiqarishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, mahsulotning belgilangan talab va standartlarga muvofiqligini baholash natijalarining haqqoniyligi va ishonchliligiga jiddiy xavf tug‘diradi [1]. Shu bois, na’muna asosida mahsulotlar mufoviqligini baholash jarayonida kelib chiqadigan noaniqlikni hisobga olish dolzarb hisoblanadi.

P.Rostron va T.Fearnning fikriga ko‘ra, mahsulotlar mufoviqligini baholashning o‘lchov noaniqligi bo‘yicha keltirilgan natijalar uning haqiqiy qiymatini ifodalamaydi, biroq haqiqiy qiymat mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan ishonch oralig‘ini aniqlash imkonini beradi [2]. Bu yondashuv mahsulotlar muvofiqligini baholash jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi, chunki iste’molchi xavfsizligi va sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha qarorlar faqat aniqlangan qiymatlar emas, balki ular bilan bog‘liq noaniqliklarni hisobga olgan holda qabul qilinadi. Shunday ekan, o‘lchov noaniqligining ishonch oralig‘ini aniqlash mahsulotning standartlarga muvofiqligini baholashda xavflarni kamaytiradi va qaror qabul qilishning ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

A. Marucheck, N. Greis, C. Mena va L. Cai tadqiqotida keltirilishicha, global ta’minot zanjirlarining offshore va outsourcing bilan bog‘liq murakkablashuvi, shuningdek, texnologiyalarning doimiy rivojlanishi sanoatda mahsulot xavfsizligi va ishonchliligi bilan bog’liq muammolarni yuzaga keltirgan [3]. Ushbu muammolarni hal qilishda xalqaro darajada tashkilotlar va standartlashtirish mexanizmlarini joriy etish, shuningdek, mahsulotlarning xalqaro me’yoriy talab va standartlarga javob berishini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.

В. Солдатов ilmiy izlanishlarida qayd etilishicha, texnik reglamentlarni belgilovchi standartlarda xavf-xatarlarni baholash metodlari keltirilishi mumkin. Muallifning ta’kidlashicha, ushbu baholash jarayoni riskka yo‘naltirilgan yondashuv sifatida emas, balki faqatgina baholash metodikasi sifatida qaralishi lozim. Chunki, riskka yo‘naltirilgan yondashuvning o‘ziga xos belgilariga ega bo‘lishi talab qilinadi, baholash metodlari esa mazkur talablarga to‘liq javob bermaydi [4].

Р.Нуреев fikriga ko‘ra, tashqi iqtisodiy faoliyat milliy iqtisodiyotning jahon xo‘jaligi bilan integratsiyasini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir. U nafaqat savdo aloqalarini rivojlantirish, balki investitsiyalar oqimini kengaytirish, yangi texnologiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mamlakatning raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Muallif ta’kidlaganidek, tashqi iqtisodiy faoliyat nazariya va amaliyot nuqtayi nazaridan ikki yo‘nalishda o‘rganilishi lozim: bir tomondan, xalqaro savdo va investitsiya jarayonlarini tartibga soluvchi iqtisodiy qonuniyatlar tizimi sifatida, ikkinchi tomondan esa, amaliy mexanizmlar majmuasi sifatida [5]. Shu orqali milliy iqtisodiyot tashqi bozorlarga moslashadi, eksport salohiyatini kengaytiradi va global iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etadi.

Е. Малышева tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta’kidlanishicha, eksport sektori milliy iqtisodiyotning global iqtisodiyot bilan uzviy aloqalarini ta’minlaydi, bu esa yangi texnologiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, to‘lov balansini yaxshilash, yangi bozorlarni egallash, xalqaro raqobatga kirish sharoitlarini yaratish hamda ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini rivojlantirish imkonini beradi .Shuningdek, ushbu ilmiy izlanishda eksport salohiyatini rivojlantirish milliy iqtisodiyot tarmoqlari uchun strategik ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bu faqat milliy raqobatbardoshlikni oshirish bilan cheklanmay, balki mamlakatning texnologik va iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi [6]. Fikrimizcha, texnologik taraqqiyot, elektron tijoratning kengayishi va global qiymat zanjirlarining rivojlanishi orqali milliy iqtisodiyot subyektlari uchun yangi savdo imkoniyatlarini ochadi va ularni jahon bozorlarida raqobatbardosh qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy mamlakatlarda mahsulotlar muvofiqligini baholash amaliyotini tadqiq etishda tizimli, qiyosiy va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Avvalo, xorijiy mamlakatlarning normativ-huquqiy hujjatlar, texnik reglamentlar hamda standartlashtirish tizimlari mazmunan o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir mamlakatda standartlashtirish tizimi davlat tomonidan baholanishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu jarayon sohani takomillashtirish va xalqaro talablarga moslashtirishga xizmat qiladi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, standartlashtirish tizimlari o‘ziga xos institutsional va tashkiliy xususiyatlarga ega.

Xususan, AQSh standartlashtirish tizimi ko‘p asrlik evolyutsiyani bosib o‘tib, davlat-xususiy sherikchilik tamoyiliga asoslangan noyob modelni shakllantirgan. Uning institutsional tarkibi davlat organlari, nodavlat institutlar, xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va fuqarolik jamiyatidan iborat bo‘lib, ular o‘zaro tizimli hamkorlikda faoliyat yuritadi. Jarayonning o‘ziga xos jihati shundaki, standartlarni qayta ko‘rib chiqish tashabbusi ko‘pincha xo‘jalik subyektlari tomonidan ilgari suriladi, davlatning aralashuvi esa minimal darajada cheklangan [7].

AQShda standartlashtirish tizimi faoliyati qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ular orasida “Milliy texnologiyalarni ilgari surish va uzatish to‘g‘risida”gi qonun, “Iste’mol tovarlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonun, “Savdo bitimlari to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentning A-119-sonli farmoni hamda Standartlashtirishni rivojlantirish milliy dasturi alohida ahamiyatga ega.

Standartlarning huquqiy maqomi (ixtiyoriy yoki majburiyligi) tegishli davlat departamentlari va vakolatli standartlashtirish organlari tomonidan belgilanadi. Ularning dolzarbligi va ilmiy-metodik asoslari sanoat subyektlari, iste’molchilar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar hamda assotsiatsiyalarning institutsional javobgarligi orqali ta’minlanadi [8]. Amerika Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti (NIST) 1901-yilda tashkil etilgan bo‘lib, AQSh Savdo vazirligi tarkibidagi federal agentlik sifatida milliy standartlashtirish tizimida muvofiqlashtiruvchi markaziy institut vazifasini bajaradi.




1-rasm. Amerika Milliy Standartlar va Texnologiyalar Institutining (NIST) ustuvor ilmiy-tashkiliy faoliyat yo‘nalishlari [9]

NIST faoliyati ilmiy-tadqiqot ishlari, innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish, muvofiqlikni baholash tizimlarini takomillashtirish hamda milliy va xalqaro standartlarning uyg‘unligini ta’minlash kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, institut iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish, ilmiy yutuqlarni amaliyotga tatbiq etish va sanoat tarmoqlarida texnik siyosatni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

ANSI esa 1918-yilda tashkil etilib, milliy standartlashtirish jarayonlarini muvofiqlashtirish, xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish, texnologik innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash hamda sanoat va ilm-fan integratsiyasini kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Tashkilot faoliyati milliy manfaatlar, xalqaro talablar va texnologik taraqqiyot o‘rtasida optimal muvozanatni ta’minlashga asoslanadi. Uning asosiy funksiyalari – standartlarni ishlab chiqish, muvofiqlikni baholash jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat (2-rasm).

| | |
|---|---|
| ANSI | Standartlarni ishlab chiqish |
| | Akkreditatsiya jarayonini oʻtish talablari va tartiblarini ishlab chiqish |
| | Tashkilotlarni akkreditatsiya qilish |
| | Milliy standartlarni tasdiqlash |
| | Tasdiqlangan standartlarni roʻyxatdan oʻtkazish |
| | Muvofiqlikni baholash |
| | Standartlashtirish boʻyicha Xalqaro tashkilot (ISO)da manfaatlarni ifodalash |

2-rasm. Amerika Milliy Standartlar va Texnologiyalar Institutining (ANSI) ustuvor ilmiy-tashkiliy faoliyat yoʻnalishlari

AQSh standartlashtirish tizimida muhim institutlardan biri Standartlashtirish tashkilotlari (SDO) hisoblanadi. Ular standartlarni ishlab chiqish, boshqarish va nashr etish faoliyatini amalga oshiradi. SDO tarkibiga professional hamjamiyatlar, tashkilotlar, konsorsiumlar va tarmoq assotsiatsiyalari kiradi. Ushbu tuzilmalar milliy standartlashtirish jarayonida ilmiy-metodik asos yaratish, sohaviy manfaatlarni muvofiqlashtirish hamda standartlarning amaliyotga joriy etilishini ta’minlashda muhim rol oʻynaydi. 1-jadvalda SDO vakolatlari tizimli tarzda yoritilgan.

AQSh standartlashtirish tizimida ANSI, SDO va NIST kabi institutlar markaziy oʻrin tutadi. ANSI ixtiyoriy standartlarni qabul qilish, akkreditatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda xalqaro standartlashtirishdagi ishtirokini ta’minlash orqali muvofiqlashtiruvchi va boshqaruvchilik vazifasini bajaradi. SDO tarkibiga kiruvchi professional hamjamiyatlar, konsorsiumlar va assotsiatsiyalar esa standartlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish hamda texnologik rivojlanishga hissa qoʻshishda faol ishtirok etadi. NIST esa metrologiya, standartlashtirish va texnologik innovatsiyalar boʻyicha ilmiy-texnik baza sifatida xizmat qiladi va texnologik suverenitetni mustahkamlashga koʻmaklashadi.

AQSh standartlashtirish tizimi yuqori darajadagi moslashuvchanlik bilan ajralib turadi: tadbirkorlik subyektlari tashabbus koʻrsatadi, davlat esa zarur sharoit yaratadi. Standartlarni yangilash jarayoni tezkor amalga oshiriladi, bu esa texnik tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshiradi. Tizim samaradorligi yillik hisobotlar orqali baholanadi. Hisobotlarda xalqaro hamkorlik koʻrsatkichlari, moliyaviy faoliyat, kadrlar resurslari hamda a’zolar roʻyxati yoritiladi.

1-jadval. AQShda standartlashtirish sohasidagi asosiy organlarning vakolatlari va faoliyat yoʻnalishlari

| Mamlakat standartlashtirish tizimi faoliyati yoʻnalishlari | ANSI | SDO | | | | NIST |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Professional hamjamiyatlar | Tashkilotlar | Konsorsiumlar | Tarmoq (soha) assotsiatsiyalari | |
| Ixtiyoriy standartlarni qabul qilish | + | | | | | |
| Akkreditatsiya bilan bogʻliq masalalar | + | | | | | |
| Mustaqil ravishda standartlarni ishlab chiqish | | + | + | + | + | |
| Ixtiyoriy standartlardan foydalanishni muvofiqlashtirish | + | | | | | |
| Standartlarni ishlab chiqishda ishtirok etish | + | + | + | + | + | + |
| Metrologiya va standartlashtirish | | | | | | + |
| Standartlarni ishlab chiqishga texnologik hissa qoʻshish | | + | + | + | | + |

Fransiyada esa standartlashtirish faoliyati AFNOR (Association Française de Normalisation) tomonidan muvofiqlashtiriladi. 1926-yilda tashkil etilgan ushbu notijorat tashkilot milliy standartlarni ishlab chiqish, ularni yangilash va xalqaro standartlar bilan uygʻunlashtirish, shuningdek, maslahat va axborot xizmatlarini koʻrsatish bilan shugʻullanadi. AFNOR Fransiyaning ISO va boshqa xalqaro tuzilmalaridagi vakili sifatida ham faoliyat yuritib, mamlakatning texnik siyosatini global miqyosda ilgari surishda muhim rol oʻynaydi.




3-rasm. AFNOR tashkilotining vazifalari

Fransiya standartlashtirish tizimini AFNOR (Association Française de Normalisation) boshqaradi. Tashkilot nafaqat ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va infratuzilma sohalarida sifat hamda xavfsizlik darajasini oshirishga xizmat qiladi, balki mamlakatning innovatsion salohiyatini mustahkamlashda ham muhim rol oʻynaydi.

2016–2021-yillarga moʻljallangan milliy standartlashtirish strategiyasi AFNOR tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, ISO va Yevropa standartlashtirish qoʻmitasi (CEN) strategik rejalariga uygʻunlashtirilgan. Strategiya besh ustuvor tamoyilni oʻz ichiga oladi:

standartlashtirish jarayonining samaradorligi va shaffofligini ta’minlash;

barcha toifadagi tadbirkorlik subyektlari ehtiyojlarini hisobga olish;

Fransiyaning xalqaro va mintaqaviy tashkilotlardagi ta’sirini kuchaytirish;

standartlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy maqomini oshirish;

AFNOR boshqaruv tizimini takomillashtirish.

AFNOR faoliyati yillik hisobotlar orqali baholanadi. Hisobotlarda faoliyat koʻrsatkichlari, moliyaviy sharh, kadrlar va xizmat vositalari hamda a’zolar reyestri yoritiladi. Moliyalashtirish jarayoni hukumat bilan hamkorlikda ishlab chiqiladigan yillik moliyaviy reja asosida amalga oshiriladi. Unda ustuvor yoʻnalishlar va standartlarni ishlab chiqishga ajratiladigan mablagʻlar alohida modda sifatida koʻzda tutiladi. Hisobotlarda, shuningdek, foydalanuvchilarning AFNOR rasmiy veb-saytidan foydalanish statistikasi ham keltiriladi.




4-rasm. AFNOR yillik hisobotida aks ettiriladigan ma’lumotlar

Germaniya milliy standartlashtirish instituti — Deutsches Institut für Normung e.V. (DIN) 1917-yilda tashkil etilgan boʻlib, dastlab mamlakat ichida ishlab chiqarish jarayonlarini birxillashtirish hamda mudofaa sohasida texnik meʼyorlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan edi. Hozirda DIN Germaniyada standartlarni ishlab chiqish, ularni xalqaro (ISO, IEC) va Yevropa (CEN, CENELEC) standartlari bilan uygʻunlashtirish, shuningdek, metrologiya, texnik tartibga solish va muvofiqlikni baholash boʻyicha muvofiqlashtiruvchi vazifalarni bajaradi.

DIN maqomi ikki darajada belgilangan:

Germaniya nomidan xalqaro va Yevropa miqyosida standartlashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi vakolatli institut;

Xalqaro standartlashtirish tashkilotlarida toʻlaqonli aʼzolik huquqiga ega milliy organ.




5-rasm. Germaniya Standartlashtirish Instituti [10]

Germaniya milliy standartlashtirish instituti (DIN) tarkibiga oʻz manfaatlarini standartlarda aks ettirishga intiluvchi kompaniyalar, ittifoqlar, davlat muassasalari, savdo firmalari va ilmiy institutlar kiradi. DIN markaziy muvofiqlashtiruvchi institut sifatida standartlashtirish jarayonlarini boshqaradi hamda ularning uygʻunlashuvini taʼminlaydi. Uning yillik hisobotida nafaqat standartlashtirish koʻrsatkichlari, balki tashkilot faoliyatidagi muhim voqealar ham yoritiladi. Hisobot tarkibiga asosiy voqealar, kadrlar, moliya, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda shoʻba korxonalar boʻyicha maʼlumotlar kiradi. Kadrlar salohiyati xodimlar soni, yangi ish oʻrinlari, ayollar ulushi, oʻrtacha bandlik muddati va daromadlar tuzilmasi kabi koʻrsatkichlar orqali tahlil qilinadi.

Buyuk Britaniya milliy standartlashtirish instituti (BSI) 1901-yilda tashkil etilgan boʻlib, notijorat maqomiga ega. BSI faoliyati sifatni oshirish, unumdorlik, xavfsizlik, risklarni boshqarish, biznes obroʻsini himoya qilish va barqarorlikni taʼminlashga qaratilgan. Tashkilot hisobotida strategik boshqaruv, korporativ faoliyat, moliyaviy koʻrsatkichlar va yutuqlar yoritiladi.

Xorijiy tajriba tahlili shuni koʻrsatadiki, AQSh standartlashtirish tizimi ikki asosiy institut – NIST (davlat muvofiqlashtiruvchisi) va ANSI (xususiy sektor manfaatlarini ifodalovchi nodavlat institut) doirasida faoliyat yuritadi. Bu tizim davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi optimal muvofiqlashtirishni taʼminlaydi.

2-jadval. Xorijiy standartlashtirish organlari hisobotida aks ettiriladigan koʻrsatkichlar

| Hisobot koʻrsatkichi | ANSI | AFNOR | DIN | BSI |
|---|---|---|---|---|
| Texnik qoʻmitalar haqidagi maʼlumotlar (aʼzolik) | + | + | + | + |
| Xodimlar (rahbariyat) haqidagi maʼlumotlar | + | + | + | |
| Uchrashuvlar / yigʻilishlar | + | + | + | + |
| Standartlarni ishlab chiqish:<br>yangi roʻyxatdan oʻtgan standartlar va xalqaro standartlar loyihalari | | + | + | + |
| Standartlar portfeli (standartlarning umumiy soni) | | + | + | |
| Strategiyani amalga oshirish boʻyicha hisobot | + | + | + | + |
| Moliyaviy hisobotlar | + | + | + | + |
| Auditorlar hisobotlari | + | + | + | + |
| Standartlashtirish faoliyatida internet texnologiyalaridan foydalanish | + | | + | + |

Germaniyada standartlashtirish yagona institut – DIN (Deutsches Institut für Normung) doirasida amalga oshiriladi. DINning asosiy vazifalari standartlashtirish qoʻmitalarini muvofiqlashtirish, standartlarni ishlab chiqish, nashr etish va tarqatishni oʻz ichiga oladi.

Fransiya manfaatlarini ifodalovchi AFNOR (Association Française de Normalisation) esa sohaviy standartlashtirish byurolarini boshqaradi, standartlarni ishlab chiqadi hamda ayrim hollarda ularning tarqatilishini nazorat qiladi.

Markaziy standartlashtirish organlari hisobotlari keng qamrovli va tizimli tuzilishga ega boʻlsa, Buyuk Britaniya BSI faoliyatida samaradorlik koʻrsatkichlari alohida e'tiborga olinadi. Biroq, internetda mazkur tashkilotlar faoliyati boʻyicha toʻliq va tizimli ma'lumotlar cheklangan. Faqat ayrim qoʻmitalarning rasmiy saytlarida turlicha shakl va mazmunga ega hisobotlar e'lon qilinadi. Shuningdek, ayrim sohaviy byurolar faoliyati individual modellar asosida tashkil etiladi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, markaziy muvofiqlashtiruvchi organlar faoliyati muntazam ravishda belgilangan koʻrsatkichlar majmuasi asosida baholanadi va hisobot shakllari odatda oʻxshash tuzilishga ega. Bevosita standart ishlab chiquvchi tashkilotlar esa muntazam baholashdan oʻtmaydi va ularning hisobotlari nisbatan tarqoq koʻrinishga ega boʻladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, standartlashtirish tizimlari davlat va xususiy sektor oʻrtasidagi oʻziga xos muvozanatga asoslanadi. AQShda bu jarayon NIST (davlat muvofiqlashtiruvchisi) va ANSI (xususiy sektor vakili) oʻrtasidagi hamkorlik orqali, Germaniyada esa yagona institut — DIN orqali amalga oshiriladi. Fransiyada AFNOR, Buyuk Britaniyada esa BSI milliy standartlashtirish faoliyatini boshqaruvchi asosiy institut sifatida faoliyat yuritadi.

Ushbu institutlar faoliyati yillik hisobotlar orqali baholanib, ularda standartlarni ishlab chiqish, moliyaviy koʻrsatkichlar, texnik qoʻmitalar, xodimlar salohiyati va strategiyani amalga oshirish natijalari yoritiladi. Bu esa standartlashtirish jarayonining shaffofligi, samaradorligi va xalqaro talablarga mosligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, xorijiy tajriba internet texnologiyalaridan foydalanish va foydalanuvchilar uchun ochiqlikni oshirish bilan ham xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy standartlashtirish tizimlarining umumiy jihati – ularning moslashuvchanligi, institutsional xilma-xilligi va muntazam hisobot berish tizimiga asoslanishidir. Bu tajribalar milliy standartlashtirishni takomillashtirishda, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda va milliy iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirishda muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**


1. Alex W, Bertil M (eds) (2021) EURACHEM/CITAC Guide “Use of uncertainty information in compliance assessment” 2nd Ed., available from http://www.eurachem.org.
2. Rostron PD, Fearn T, Ramsey MH (2020) Confidence intervals for robust estimates of measurement uncertainty. Accreditat Qual Assurance J Qual Comparabil Reliabil Chem Measure 25:107– 119. https://doi.org/10.1007/s00769-019-01417-4.
3. A.Marucheck, N.Greis, C. Mena and L.Cai, “Product Safety and Security in the Global Supply Chain: Issues, Challenges and Research Opportunities.” Journal of Operations Management, Vol. 29, Issues 7-8, 2011, pp. 707-720.
4. Солдатов В.А. Формирование системы оценки соответствия инновационной продукции на основе опережающей стандартизации. Автореф. диссертация на соискание ученой степени к.э.н. – Санкт-Петербург, 2025. 24 с.
5. Нуреев Р.М. Внешнеэкономическая деятельность: теория и практика. - М.: Дашков и К, 2020.
6. Малышева Е.В. Развитие экспортного потенциала национальной экономики за счет активизации экспортной деятельности российского малого и среднего бизнеса. Автореф. диссертация на соискание ученой степени к.э.н. – Москва, 2022. 28 с.
7. Аронов А., Саламатов В. Национальная система стандартизации США: опыт работы в условиях ВТО / А. Аронов, В. Саламатов // Стандарты и качество. 2013. № 9.
8. Калашников Д.И. Императивы развития показателей деятельности национальной системы стандартизации России / Д.И. Калашников // Наука и бизнес: пути развития. 2016. № 10.
9. Национальная стратегия стандартизации США [Электронный ресурс] // Режим доступа: www.rgtr.ru
10. Немецкая стратегия стандартизации [Электронный ресурс] // Режим доступа: www.rgtr.ru 99.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100